



“TASDIQLAYMAN”

**Urganch innovatsion universiteti
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektori M.M.Masharipov**

**Urganch innovatsion universiteti ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi tomonidan tarix mutaxassisligi
I bosqich magistrantlari bilan o'tkazilgan uchrashuv to'g'risida**

BAYONNOMA

28.01.2025-yil

Urganch shahri

Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish Urganch innovatsion universitetining **ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi** tuzilmasiga kiritilgan. Bo'limning asosiy maqsadi iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlashdan iborat bo'lib, universitetning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, tayyorlash va bu borada yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyish etish hamda rivojlantirish uchun imkoniyat yaratishdir. Shu bois joriy yilning **28-yanvar kuni** universitet **ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi** tomonidan **tarix mutaxassisligi I bosqich magistrantlari bilan** bilan uchrashuv tashkil qilindi. Uchrashuvda ushbu **bo'lim boshlig'i A.Abdullayev** tomonidan bugungi kunda ilmiy faoliyat yuritayotgan yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar, ilmiy maqola va tezislarni yozish, turli jurnal va ilmiy-amaliy anjumanlarda ilmiy ishlarni qay tartibda chop etish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi va nomli davlat stipendiyalariga, respublika va xalqaro konferensiya, simpozium, fan olimpiadalariga qatnashish tartibi, ilmiy-innovatsion ishlanmalar, ilmiy-ijodiy loyihalar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, ularning qanday mavzularda ilmiy tadqiqot olib borayotganligi, ushbu tadqiqotga oid ilmiy manbalar bilan qay darajada tanishganligi, ilmiy tadqiqot ishlari doirasida amalga oshirayotgan ishlari, o'z ilmiy faoliyati doirasida qay darajada tizimli ravishda ish olib borayotganligi haqida so'raldi. Bundan tashqari,

magistrantlarning talab doirasidagi **milliy yoki xalqaro xorijiy til sertifikatlarini 2025-yil sentabr oyiga qadar** taqdim etishlari lozimligi aytib o'tildi.

Uchrashuvda magistrantlar ilmiy faoliyatga doir muhim ma'lumotlarga ega bo'ldilar va ilmiy sohaga doir o'zlari qiziqqan savollarga javob oldilar.

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va
ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash
bo'limi boshlig'i:**



A.Abdullayev

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va
ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash
bo'limi mutaxassisi:**



Sh.Yusupova

Uchrashuvdan lavhalar

